

PAXTACHILIKNI XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

Student **S.Q. Mayrambekova**

M.K. Djangabaeva

Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Respublikamizada paxtani yetishtirish holati, olib borilayotgan say harakatlar va paxtachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Paxtachilik, paxta xom-ashyosi, paxta tolasi, Paxta-to'qimachilik klasterlari.*

Abstract: This article talks about the importance of cotton growing in the national economy.

Key words: Cotton farming, agriculture, Cotton raw materials, Cotton outlook, cotton cluster.

O'zbekistonda paxtachilik qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu tarmoqni hozirgi zamon talablariga mos ravshda, ilm-fan yutuqlaridan, suv va resurstejamkor innovatsion texnologiyalardan oqilona foydalangan holda rivojlantirib, yuqori sifatli, tannarxi arzon, ekologik sof mahsulot yetishtirish, jonajon O'zbekiston xalqini qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabini to'la-to'kis qondirish va ularning turmush farovonligini oshirib, rivojlangan mamlaktlar qatoridan o'rin oldirish ko'zda tutiladi.

Qishloq xo'jaligini yanada yuksaltirishning eng muhim omili fan bilan ishlab chiqarishni uyg'unlashtirish hisoblanadi. Buni rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ham ko'rishimiz mumkin.

Paxta xom-ashyosi, poyasi, g'o'za bargi, chanoq va chigitlaridan 100 dan ortiq mahsulot tayyorlanadi, ya'ni mazkur ekindan chiqitsiz to'liq foydalaniladi.

Bir tonna chigitli paxtadan 340–370 kg gacha tola, 530–560 kg gacha chigit, 50–120 kg momiq olinadi. Bir kilogramm toladan 5 metr gazlam ayoki 140 ta g'altak ip ishlab chiqariladi. Bir tonna chigitdan 170 kg moy, 400 kg kunjara, 50–60 kg momiq, 60 kg o' simlik oqsili, 300 kg shulxa olinadi. Bundan tashqari, margarin, kir sovun, alif moyi tayyorlashda foydalaniladi [1].

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti O'zbekiston Fanlar Akademiyasining umumiy yig'ilishida "Dehqonchilik va umuman ishlab chiqarishni fan negizida, ayniqsa fundamental fan asosida qayta qurollantirmas ekanmiz, mamlakat taraqqiyotini tezlashtirishimiz amri mahol", - deb ta'kidlagan edilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bosshiligida 2022-yilning 28-iyun kuni paxta hosildorligini oshirish va to'qimachilik mahsulotlari eksportini ko'paytirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan bu sohalarda to'liq klaster tizimi joriy etildi. So'nggi uch yilda paxta-to'qimachilik klasterlariga 23 trillion so'mdan ziyod imtiyozli mablag'lar ajratildi. Bundan tashqari, ularning o'zlari ham qariyb 7 trillion so'm xususiy investitsiyalar sarflagan. Ushbu tizim natijasida 350 ga yaqin yirik fabrikalar ishga tushirildi. Ishlab chiqarish hajmi 2016 yilga nisbatan 5 barobarga oshdi, eksport ko'lami esa 4 barobarga o'sib, qariyb 3 milliard dollarga yetdi.

Besh yil avval yurtimizda yetishtirilgan paxta tolasining atigi 80 foizi qayta ishlangan bo'lsa, 2023 yilga kelib 100 foiz o'zimizda qayta ishlanmoqda.

"Cotton outlook" xalqaro axborot agentligining boshqaruv direktori R. Batler, Paxta bo'yicha xalqaro maslahat ko'mitasining boshqaruv direktori A. Gitchuns va boshqa mamlakat vakillari boshqaruv direktorlarining ta'kidlashicha, dunyo miqyosida kechayotgan global iqtisodiy inqirozlarga qaramasdan, O'zbekiston jahon paxta bozorida o'z o'rnini barqaror saqlamoqda.

Dehqonchilikning har bir sohasida bo'lgani kabi paxtachilikning rivojlanishi ham yuqori hosildor, kasallik va zararkunandalarga, keskin o'zgaruvchan iqlim, suvsizlik sharoitlariga rhiilamli hamda tovar mahsulotining sifati yaxshi bo'lgan g'o'za naviga bogliq.

Paxtadan to'qilgan gazlamaning sifatli bo'lishi, birinchi navbatda tolaning muayyan darajada moslashgan texnologik xususiyatlariga, ya'ni uning uzunligiga, pishiqligiga, ingichkaligiga, nisbiy uzilish kuchiga bog'liq. Tola qanchalik ingichka, pishiq va uzun bo'lsa, shunchalik qimmatli bo'ladi, undan eng yaxshi gazlama ham da boshqa mahsulotlar tayyorlanadi.

O'zbekiston Respublikasida hududlar kesimida paxta yetishtirish bo'yicha ma'lumot

1-jadval

Hududlar	2020 йил	2021 йил	2022 йил
Qoraqalpog'iston Respublikasi	201,3	231,9	243,0
Andijon viloyati	268,2	279,7	281,5
Buxoro viloyati	296,1	345,3	362,3
Jizzax viloyati	220,4	264,5	271,9
Qashqadaryo viloyati	378,2	393,5	398,5
Navoiy viloyati	101,8	111	115,4
Namangan viloyati	211,5	213,8	220,9
Samarqand viloyati	217,7	244	251,3

Surxondaryo viloyati	201,5	253,6	260,4
Sirdaryo viloyati	190,4	225,7	224,9
Toshkent viloyati	239,7	247,3	258,2
Farg'ona viloyati	264,1	272,7	284,2
Xorazm viloyati	273,1	289,9	302,8
Respublika bo'yicha, ming tonna	3064	3372,9	3475,3

1-jadvalda paxta yetishtirish O'zbekiston Respublikasi miqyosida olib qaraydigan bo'lsak 2020- yilga nisbatan 2020- yilgi ko'rsatkishlarda mahsuldorlik oshganligini ko'rishimiz mumkin. Deyarli barcha hududlarda paxta yetishtirish ko'rsatkishlari 2020-yilga qaraganda paxtashilik ko'lami ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasidagi belgilab qo'yilgan vazifani bajarishda to'qimachilik sanoatini rivojlantirish, ishlab chiqarishda mahsulot sifatini va tayyor mahsulotlarning eksport hajmini oshirish rejalari ishlab chiqilgan.

Harakatlar strategiyasidagi belgilab qo'yilgan vazifalarini ko'rsatilgan yillarda tizimli ravishda amalga oshirildi. Shu ishlarini yanada takomillashtirish maqsadida, jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan tarqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, ... maqsadida, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" tasdiqlandi.

Malumki paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash quvvatlarini ko'paytirish, ushbu jarayonga ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish, ularning manfaatlarini davlat hokimiyati boshqaruv organlarida himoya qilish tizimini yo'lga qo'yish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-iyundagi 397 sonli Qarori asosida «O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari» uyushmasi tashkil etildi. Paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etishda namuna sifatida Buxora viloyatida "BCT Cluster" xorij korxonasi tashkil etildi. Buning uchun 123,1 million AQSH dollari qiymatidagi investitsiya yo'naltirilib, to'quv-trikotaj fabrikalari tashkil etildi.

Shu sababli, ilg'or texnologiyalarga asoslangan infratuzilmalarni yaratish, qishloq xo'jaligida klaster usulini joriy etishga jiddiy e'tibor qaratildi. Ana shunday innovatsion loyihalardan biri Buxoro viloyatida amalga oshirilayotganligini misol qilishimiz mumkin.

Klaster tushunchasi amerikalik olim M. Porter tomonidan "Mamlakatlarning raqobat ustunliklari" (1990) nomli fundamental asarida ilmiy atama sifatida kiritilgan. Bu tushuncha Amerika va Yevropa korporatsiyalarining muvaffaqiyatli faoliyati haqidagi ma'lumotlarni tizimli o'rganish asosida vujudga keldi [2].

Hozirgi vaqtda Respublikamizda 2023- yil holatiga respublika bo'yicha jami 134 ta paxta-to'qimachilik klasterlarida mahaliy xomashyodan sifatli yigirilgan ip, gazlamalar va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Ushbu paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etilishi bo'yicha ikki toifaga ajaratish mumkin: birinchi toifa mavjud to'qimachilik korxonalariga bir nechta fermer xo'jaliklarini birlashtirilgan va ikkinchi toifa yangi investitsiya asosida tashkil etilayotgan ko'p tarmoqli klasterlari [3].

Paxta to'qimachilik klasteri bu yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan korxonalar kompleksi va aholi turli qatlamlarini o'zida jamlovchi bog'lam bo'lib, ayni paytda sohada innovatsion iqtisodiyotga o'tishning muhim bosqichi bo'lib hisoblanadi. U ilm-fan, ta'lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, yangi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etishda dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston prezidenti huzurida Paxtachilik kengashi tashkil etildi. Kengash hududlar tuproq-iqlim sharoitlariga mos g'oz navlarini ekish va urug'larini ko'paytirish, o'g'itlash, sug'orish, suv tejamkor texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Shuningdek, xususiy urug'chilik klasterlari tashkil etiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 7 iyul kuni «Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarorni imzoladi.

Hujjatda paxta hosildorligini oshirish bo'yicha yangi tizimni joriy qilish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarga asoslangan urug'chilik, nav tanlash, yerga ishlov berish, o'g'itlash, sug'orish ishlarini yo'lga qo'yish orqali paxta-to'qimachilik sohasida eksport hajmlari va daromadni oshirish maqsadlari ko'za tutildi.

O'zbekiston paxta tolasi mamlakatimiz to'qimachilik sanoatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda mamlakatimizda 550 dan oshiq zamonaviy to'qimachilik korxonalarini faoliyat ko'rsatib kelishmoqda. Bunga qo'shimcha ravishda yildan-yilga yangi-yangi korxonalar ishga tushirilayapti. Paxta tolasini qayta ishlash hajmi yildan-yilga ko'payib, 2021 yilda yalpi hosilga nisbatan 72-75% ni tashkil etdi [4].

Paxta tolasidan turli xil gazlamalar, ip, arqon, baliq ovlaydigan to'r, tasma, transportyor tasmasi, qog'oz kabi turli mahsulotlar ishlab chiqariladi, shuningdek, u harbiy maqsadlarda ham keng qo'llaniladi.

Qishloq xo'jaligida chuqur qayta ishlashni va sanoatni rivojlantirmasdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmasligini bugun hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Bu yilgi mavsumda ham paxta-to'qimachilik klasterlari yaratilgan sharoitlardan omilkorlik bilan foydalanib, paxtadan mo'l hosil etishtirishdi. Xususan, klasterlar tizimi joriy etilgandan to bugungi kunga qadar, paxta hosildorligi o'tgan yillarga nisbatan oshib bormoqda.

Xulosa. Hozirgi kunda jahonda paxta yetishtirish bo'yisha Xitoy, Hindiston, AQSH davlatlari yetakshi o'rinlarni egallamoqda. O'zbekiston ham paxta yetishtirish bo'yisha jahaoda 6 orinni egallab yiliga deyarli 1120 ming tonna paxta tolasini yetishtirib bormoqta. Shundan ko'rinib turibdiki yurtimizda paxtachilikni yana rivojlantirish ushin keng ko'lamli islohatlarni va o'zgarishlarni yanada kengaytirishimiz kerak, shunda kelajakta paxta yetishtirish katta daromad olib keldiradigan sohalardan biriga aylanishi mumkin. Etishtirilgan paxta tolalaridan sifatli to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilib jahon bozorida O'zbekiston Respublikasi o'z o'rnini egalashga zomin yaratiladi.

REFERENCES:

1. M.M.Yakubov, O.J.Haydarov. «Paxtachilik». O'quv qolla'nma. Toshkent 'Qituvchi' 2004.127.B
2. Портер М. Международная конкуренция. – М.: Международные отношения, 1993. С. 51.
3. Электрон манба: <https://www.agro.uz/agroklasterlar-va-kooperatsiyalar>
4. M.L.Ikramova, B.N. Rahmatov, R.YUnusov Paxtachilik, Qishloq xo'jalik oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. Buxoro-2022. 400.B.
5. "Paxta-to'qimachilik klasteri – iqtisodiy taraqqiyot lakomativil kitobi CottonTextile Cluster - locomotive of the economic development: The cluster system is an important factor in the transition to market principles Paperback – March 4, 2021 de Gruyter, pp. 190-213.
3. Асадова, М. Қ. (2022). БИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭСПАРЦЕТ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАН. Journal of Integrated Education and Research, 1(4), 267-269.
4. Akbarova Muxayyo Xusanovna, & Asadova Muhabbat Quدراتovna (2023). FARG'ONA VODIYSIDAGI SCUTELLARIA L. TURKUMI TAKSONOMIK TARKIBI. Science and innovation, 2 (Special Issue 6), 102-108. doi: 10.5281/zenodo.7999064
5. Xusanovna, A. M., & Quدراتovna, A. M. (2023). RIDGE DISTRIBUTION OF SPECIES OF THE GENUS SCUTELLARIA L.(LAMIACEAE) OF THE FERGANA

VALLEY. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(5), 2532-2542.

6. Акбарова, М. Х., & Асадова, М. Е. (2021). SCUTELLARIA L. ТУРКУМИ ТУРЛАРИНИНГ ДОРИБОРЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал естественных наук, 2(1).

7. Акбарова, М. Х., Асадова, М. Қ., & Жўраев, З. Н. Ў. (2021). Scutellaria comosa juz.(lamiaceae) нинг Фарғона водийсидаги табиий захиралари. Academic research in educational sciences, 2(3), 461-471.

25. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences, 4(5), 42-47.

26. Sattarovich, A. U. (2023). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ASOSIY TAMOILLARI. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(20), 232-234.

27. Abdusalomov, U. S., & Boltaboyev, A. (2020). GENERAL CHARACTERISTICS OF THE MILITARY COMMITTEES OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Экономика и социум, (12 (79)), 10-13.

28. Abdusalomov, U. S. (2023). DEFENDING THE MOTHERLAND IS THE OBLIGATION OF EVERY CHILD. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 1(1), 6-9.

29. Sattarovich, A. U. (2022). We Should Follow the Example of Our Ancestors in Patriotism. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 6, 24-26.

30. Sattarovich, A. U. (2023). HARBIYLARNING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 1(12), 96-100.

31. Sattarovich, A. U. B. (2022). «HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI». Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 90-97.

32. Абдусаломов, У. С. (2023). ЗАЩИЩАТЬ РОДИНУ-ОБЯЗАННОСТЬ КАЖДОГО РЕБЕНКА. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 5(5), 13-17.